

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

3-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQRARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLAKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UN DAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizulloh</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI VAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС ПРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNII	237-241
<i>Toshiboieva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUVDAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIYASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoiev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafroz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372
12.00.00 - YURIDIK FANLAR	
<i>Hурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNIY KUCHGA KIRGAN SUD HUJJATLARINI YANGI OCHILGAN HOLATLAR BO'YICHA QAYTA KO'RISHNING AYRIM MASALALARI	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNIIY- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEKANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafuz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

DESIGN, SYSTEMATIZATION AND CONTENT OF DIGITAL EDUCATIONAL RESOURCES IN PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Gafforov Alisher Kholmurodovich

Associate Professor

Department of Metrology and Standardization

Bukhara Engineering and Technological Institute

Abstract. The relevance of this topic is due to the fact that at the moment there is no single structured approach to the creation of digital educational resources, and clear requirements for their structure and content are not defined at the state level. Accordingly, there is a need to systematize digital educational resources and develop unified requirements for their creation, structure and content for use in educational institutions. The paper examines the issues of identifying a systematic approach to the structure and use of digital educational resources in the educational process.

Keywords: distance education, educational process, software, digital educational resources, e-course.

PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI

Gafforov Alisher Xolmurodovich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

“Metrologiya va standartlashtirish” kafedrası dotsenti

E-mail: alishergafforov78@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu mavzuning dolzarbligi shu bilan asoslanadiki, hozirgi kunga qadar davlat miqyosida raqamli ta'lim resurslarini yaratish, ularning strukturalari va mazmunining aniq chegaralari bo'yicha yagona tizimlashtirilgan yondashuvi mavjud emas. Shuning uchun raqamli ta'lim resurslarini tizimlashtirish va ularni yaratish, strukturasi va mazmuniga qo'yilgan unifikatsion talablarni ishlab chiqish hamda ta'lim muassasalarida qo'llash zaruriyati mavjud. Mazkur ishda ta'lim jarayonida raqamli ta'lim resurslarini strukturasi va ulardan foydalanishning tizimli yondashuvini aniqlash masalalari tadqiqot qilinadi.

Kalit so'zlar: masofaviy ta'lim, ta'lim jarayoni, dasturiy ta'minot, raqamli ta'lim resurslari, elektron kurs.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N77>

Kirish. Professional ta'limning davlat ta'lim standartlarida ta'lim jarayonini elektron resurslar bilan ta'minlash majburiy talablardan biri sifatida kiritilishi munosabati bilan, bunday resurslarni ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha amaliy ishlarga e'tibor oshdi. Hozirgi kunda raqamli ta'lim resurslariga (RTR) bo'lgan talab va ehtiyojning keskin oshib ketishi, ularning ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni samarali tashkil etishdagi innovatsion xususiyatlari bilan xarakterlanadi.

Tarmoq texnologiyalarini joriy etish asosida ta'lim jarayonini loyihalash maqsadida RTRdan foydalanish murakkab texnik va metodik masalalar yechimini topishni taqozo etadi. Shuning uchun, ta'limni raqamlashtirish sharoitida RTRdan foydalanishni loyihalash hamda

uning metodologiyasining yagona tamoyilini yaratish dolzarb masalalardan biridir. Raqamli ta'lim resurslarini yaratish ta'limni axborotlashtirish jarayonining zamonaviy infratuzilmaning asosiy komponentasini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Professional ta'lim muassasalarida raqamli ta'lim resurslarini yaratish va undan foydalanish bo'yicha dolzarb vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5812-sonli Farmonida belgilab berilgan. Farmonda professional ta'limni bosqichma-bosqich raqamlashtirish, o'quvchilarning kasbiy kompetentligi zamonaviy bozor talablariga javob berishiga erishishida o'quv jarayonida raqamli ta'lim resurslaridan faol foydalanish alohida ta'kidlangan [1].

RTRni loyihalash va joriy etish, ularni tahlil etish va ekspertizadan o'tkazish muammolari A.A.Abduqodirov, U.Begimqulov, Q.T.Olimov, T.N.Suvorova, I.V.Robert, A.V.Osin, S.Avdeeva, I.Belavina, E.A.Bondarenko, L.Briggs, A.Dillon, N.Harrisonlarning ilmiy tadqiqotlarida ko'rib chiqilgan.

Ilmiy adabiyotlarda "Raqamli ta'lim resursi" tushunchasi turli yondashuvlar asosida talqin qilingan bo'lib, mazkur terminologiya noaniqlik bilan xarakterlanadi.

P.P.Petrovaning fikriga ko'ra, raqamli ta'lim resursi – maxsus ta'lim resursi bo'lib, u didaktik maqsadlarga erishishga yoki aniq o'quv masalalarni yechishga yo'naltirilgan interfaol multimedia mahsulotidir [2, 354].

N.F.Babina esa, RTRni raqamli formada taqdim etilgan rasmlar, videomateriallar, interfaol obyektlar, matnli hujjatlar va boshqa raqamli yordamchi manbalarni o'quv faoliyatni tashkil etishda foydalanishni nazarda tutadi [3, 58].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, RTRning boshqa ta'lim resurslaridan asosiy farqi – bu uning interfaol xarakterga ega ekanligidir. RTRning aynan ushbu xarakteristikasi ta'lim oluvchilarning undan foydalanish jarayonida faolligini oshirishni nazarda tutadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozishda quyidagi materiallardan va metodlardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlar tahlili, pedagogik tajriba, qiyosiy tahlil, ekspertli baholash metodi.

Maqolani tayyorlash jarayonida tadqiqot muammosi bo'yicha adabiyotlar tahlili o'tkazildi. Natijada mualliflar tomonidan professional ta'lim muassasalarida RTRni ta'lim jarayonida integratsiyalash zaruriyati mavjudligi haqidagi xulosaga kelindi. Turli parametrlar bo'yicha RTRning klassifikatsiyasi keltirildi. RTRni ekspertli baholash mazmunli, metodik va texnik jihatlarni qamrab olgan.

Mazmunli ekspert baholash Buxoro muhandislik texnologiya instituti "Yengil sanoat mahsulotlari texnologiyasi" kafedrasida o'qituvchilari tomonidan professional ta'lim muassasalarida o'quvchilari uchun ishlab chiqilgan va sinovdan o'tkazilgan "Yengil sanoat mahsulotlari konstruksiyasi va texnologiyasi" o'quv kursi mazmunining bahosi bilan belgilandi. Baholash davrida o'quv kursi bo'yicha ishlab chiqilgan RTR mazmuni professional ta'limning mos yo'nalishining davlat ta'lim standarti, fan dasturi talablariga mosligi, shuningdek didaktik ehtiyoj hamda materiallarning strukturasi hamda mazmuni modulli-kompetentli yondashuvga mosligi aniqlandi.

Texnik ekspertiza bahosi "Yengil sanoat mahsulotlari konstruksiyasi va texnologiyasi" fanidan ishlab chiqilgan RTRning barcha komponentlari yaroqli va dizayn hamda ergonomik talablarga javob berishini aniqlab berdi.

Pedagogik tajriba ishlarida “Yengil sanoat mahsulotlari konstruksiyasi va texnologiyasi” fanidan ishlab chiqilgan elektron o‘quv qo‘llanmaga o‘quvchilarning bilimni baholash uchun qo‘shimcha test topshiriqlari qo‘shildi. Shuningdek, “Ayollar kiyimini konstruksiyalash” mavzusi bo‘yicha ishlab chiqilgan virtual stend yangi vizual materiallar bilan boyitildi.

Qiyosiy tahlil o‘quvchilarning umumkasbiy kompetensiyasi shakllanganlik darajasi orqali aniqlandi. O‘quvchilarning yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalashda asosiy yondashuvlar va texnologiyalarni qo‘llash qobiliyati hamda kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanib bilishi tahlil etildi.

O‘quvchilarning kasbiy kompetensiyasini – yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va uning texnologiyasini bo‘ljak kasbiy faoliyatida samarali qo‘llash metodlarini va usullarini o‘zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Mazkur kompetensiya o‘quvchilar fanni to‘liq o‘qiganlaridan so‘ng yakuniy test o‘tkazish yo‘li bilan aniqlanadi.

Tajriba guruhleri fan bo‘yicha o‘quv materiallarni an‘anaviy tarzda auditoriyada o‘rgandi. Nazorat guruhleri esa o‘sha fan bo‘yicha ishlab chiqilgan o‘quv materiallarni RTR asosida kompyuter sinflarida bajardi. O‘quvchilarning umumkasbiy va professional kompetensiyalarni o‘zlashtirganlik xarakteristikalari ular tomonidan to‘g‘ri yechilgan testlar soni bilan belgilandi.

Tajriba va nazorat guruhlarida o‘quvchilar tomonidan ko‘rib chiqiladigan kompetensiyalarning shakllanganlik darajasi shuni ko‘rsatadiki, nazorat guruhlarida testlarni to‘g‘ri yechgan o‘quvchilar soni, tajriba guruhlaridagi o‘quvchilar sonidan ko‘proqni tashkil qildi.

Tahlil va natijalar. RTR mazmuni ta‘lim xarakterdagi ma‘lumotlar bo‘lib, ular raqamli, elektron, kompyuterli formalarda taqdim etiladi va raqamli axborot tashuvchilarda saqlanadi [4].

RTR – obyekt bo‘lib, uning vazifasi ta‘lim maqsadlariga erishishdir [5, 642].

RTR tarkibida ko‘rgazmali va ta‘lim jarayonining sifatini ta‘minlaydigan rasm-, video va audiomateriallar, statik va dinamik modellar, virtual borliq obyektlari va muloqotli modellashtirish, matnli fayllar yoki boshqa ta‘lim materiallarini kiritish mumkin [6].

Xalqaro grant dasturlarining normativ hujjatlarida ta‘lim uchun ishlab chiqiladigan resurslar uchun mazkur tushunchani yanada aniq chegaralari belgilab berilgan. Unga ko‘ra, o‘quv jarayonida qo‘llaniladigan RTR uchta kategoriyaga bo‘linadi:

- “raqamli mazmunli modul” – aniq o‘quv mavzuning belgilangan bir qismini o‘rganishni maqsad qiladi;

- “innovatsion o‘quv-metodik komplekslar” – elektron komponentdagi komplekslar bo‘lib, o‘quv dasturi doirasidagi o‘rganiladigan mavzular materiallarini qamrab oladi;

-“murakkab strukturali axborot manbalari” – mavzuning aniq qismiga tegishli bo‘lgan turli axborot obyektlaridir.

Professional ta‘lim muassasalari o‘quv jarayonida RTR joriy etish bir qator afzalliklarga ega. Jumladan:

- ta‘lim olishning yangi formalarini joriy etish;
- o‘qitish jarayoniga shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni qo‘llash;
- professional ta‘limning yagona axborot-ta‘lim muhitini ishlab chiqish;
- makon va zamondan bog‘liq bo‘lmagan holda ta‘lim jarayonining mustaqilligi;
- individual ta‘lim trayektoriyani tanlash imkoniyatini taqdim etish;

- o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishini rivojlantirish;
- o'qishga bo'lgan motivatsiyaning oshishi;
- o'quvchilarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, axborotlashgan jamiyatning zamonaviy an'analarini hisobga olgan holda ularni mehnat faoliyatiga tayyorlash;
- ko'rgazmali qurollarning sifatini yaxshilash;
- nazorat va bilimlarni baholash jarayonlarini avtomatlashtirish.

Shu bilan birga yaxshi ishlab chiqilgan har qanday RTR sifatli ta'lim maqsadlariga erishishga kafolat bermaydi. Har qanday o'qitish vositasi kabi RTRni joriy etishning asosiy maqsadlaridan biri – o'qituvchilarni oldindan mashg'ulotlarga tayyorlashdir. Ta'lim jarayoniga yangi o'qitish vositalarini kiritish, ularni joriy etish metodikasiga muvofiqligini nazarda tutadi.

Professional ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning muhim shartlaridan biri RTRni ta'lim jarayoniga integratsiyalashdir. Ushbu masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, RTRni ta'lim jarayoniga integratsiyalash quyidagi ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshirilishi mumkin [7,72; 8]:

1. RTR ta'lim jarayoniga "ikkinchi darajali" o'qitish vositasi sifatida integratsiyalanadi va ta'limning klassik metodlariga qo'shimcha ravishda material sifatida foydalaniladi. Axborot sifatida resurslar ta'lim jarayonini intensivlashtirishga xizmat qiladi, ta'lim oluvchilarga individual yondashuvni ta'minlaydi, ta'limni raqamlashtirish hisobidan o'qituvchilarni ta'lim oluvchilarni nazorat qilish, baholash kabi ishlardan qisman ozod qiladi.

2. RTRni ta'lim jarayoniga asosiy ta'lim resursi sifatida integratsiyalash ta'lim mazmunini tahrirlash va zarur bo'lganda yangi materiallarni qo'shishga olib keladi. RTRni integratsiyalash jarayoni bir necha bosqichlardan tashkil topadi [9].

Birinchi bosqich shaxsiy kompyuterlarning mavjud dasturiy-apparat imkoniyatlarini, pedagogik xodimlarning imkoniyatlarini, o'qituvchi va talabalarning IT-texnologiya sohasidagi bilimlarini aniqlashni nazarda tutadi.

Ikkinchi bosqich aniq o'quv fanlarini tanlash va ularning mazmuni hamda strukturasi tahlil qilish bilan xarakterlanadi. Fanning axborot tashkil etuvchilari RTRdan foydalangan holda murakkabligi, formalari (tajriba, amaliy va h.k.) bo'yicha bo'limlarga bo'linadi va ular nisbati klassik o'qitish vositalari bilan solishtiriladi [10, 116].

Uchinchi bosqich foydalaniladigan RTRning ijobiy va salbiy tomonlari va kamchiliklarini aniqlash jarayoni bilan xarakterlanadi. Ishlab chiquvchi yangi RTRni loyihalashda ishni ssenariysini tayyorlash va ishlab chiqiladigan resurs uchun o'qitish texnologiyasini aniqlashdan boshlaydi. Undan keyin uni joriy etish usullarini belgilab oladi.

To'rtinchi bosqich RTRdan foydalanish jarayonida rejalashtirilgan samarali o'zgarishlarning psixologik-pedagogik tahlilini o'tkazishni nazarda tutadi. Bunda RTRni ishlab chiqishning metodik va didaktik prinsiplari inobatga olinadi va ularning ta'limni intensivlashtirishga ta'siri hamda RTR bilan ishlashda o'qituvchi va o'quvchilarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kamchiliklar yoki muammolar tahlil qilinadi.

Beshinchi bosqich ishlab chiqilgan RTR ta'lim jarayoniga integratsiyalash maqsadida nazorat guruhi o'quvchilari testdan o'tkaziladi. Shundan so'ng, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida resurslardan foydalanish bo'yicha axborotlarni yig'ish va tahlil etish ishlari amalga oshiriladi [4].

Agar o'quv jarayonida RTRdan foydalanishda ta'lim sifati yaxshilanganligi pedagogik tahlil asosida kuzatilsa, unda ta'lim muassasada RTRdan foydalanishni kengaytirish maqsadga


muvofiqdir. RTRdan to'g'ri foydalanish uchun metodik hujjatlarni, foydalanuvchi uchun maxsus qo'llanmani ishlab chiqish lozim.

RTR pedagogik samara berishi uchun o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bunday resurslar bilan ishlash va ularni o'quv jarayonida qo'llash bo'yicha qo'yilgan talablarga javob berishi kerak.

RTRni ta'lim jarayonida qo'llash ma'lum darajada o'quvchilar tomonidan materialni o'zlashtirish tezligini oshirishga xizmat qiladi. Ammo, bu jarayon o'quvchining shaxsiy sifatlariga va qobiliyatiga ham bog'liqdir. Resurs o'qituvchiga so'z bilan tushuntirish qiyin bo'lgan o'quv materiallarni ko'rgazmali taqdim etishga imkon beradi.


Bundan tashqari, RTRdan samarali foydalanish sinfdagi muhitga ham bog'liqdir. Resursdan axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan birga foydalanish tavsiya etiladi. RTR orqali o'qitishning an'anaviy vositalarini to'liq almashtirilishi tavsiya etilmaydi va ular yordamchi didaktik vosita rolini bajarishlari kerak. Raqamli resurslarni qo'llash chastotasi va formalari fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda individual aniqlanishi lozim.

1-rasmda RTRning umumiy qabul qilingan klassifikatsiyasi keltirilgan:



1-rasm. RTRning umumiy qabul qilingan klassifikatsiyasi

Quyida ayrim mavjud klassifikatsiyalarning xarakteristikalarini ko'rib chiqilgan. 2-rasmda RTRning ta'limiy-metodik funksiyalari bo'yicha klassifikatsiyasi keltirilgan.



2-rasm. RTRning ta'limiy-metodik funksiyalari bo'yicha klassifikatsiyasi

Shuningdek, RTR belgilanishi bo'yicha quyidagicha klassifikatsiyalanishi mumkin (3-rasm).



3-rasm. RTR belgilanishi bo'yicha klassifikatsiyalanishi

Axborotlarning mazmun bo'yicha RTRni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin [11, 9]:

1. Axborot manbalari guruhiga kiruvchi resurslar:

- bosma manbalardan takrorlangan matnlar;
- grafikli qo'zg'almas tasvirlar;
- multimedia muhitlar.
- axborot bilan ishlovchi instrumentlar.

2. Elementar axborot obyektlari:

- RTRni mazmunini loyihalovchi obyektlar;

- raqamlashtirilgan to'liq axborot manbalari;
- raqamlashtirilgan yakuniy ta'limga tegishli axborot mahsulotlari.

Ta'lim-tarbiyaviy jarayonlariga bag'ishlangan RTRni yaratish jarayonida turli soha mutaxassislari: psixologlar, fan o'qituvchilari, dasturchilar, interfeys dizaynerlari qatnashadilar. RTR yaratishda dasturiy ta'minot bilan shug'ullanadigan mutaxassislarni jalb etish ijobiy samara beradi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining o'zlari ham turli instrumental vositalaridan foydalanib elektron ta'lim dasturlarini yaratishlari mumkin. Bunday holatda samarali natijaga erishish maqsadida ayrim texnologik prinsiplarni aniqlash zarur.

Ta'kidlash joizki, professional ta'lim muassasalarida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar ko'p hollarda quyidagi kamchiliklarga ega:

- elektron kursdagi axborotlar sifatining pastligi;
- ishlab chiquvchi o'zining sof subyektiv fikrini ifodalashi, zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotidan yetarli tajribaga ega emasligi;
- an'anaviy darslik matni nusxasini elektron ko'rinishda taqdim etilishi;
- ommabop ma'lumotnomalarni soddalashtirilgan shaklda ko'paytirilishi;
- ayrim texnik xatoliklarga yo'l qo'yilishi natijasida o'quvchilarga ishonchli ma'lumotlarning yetib bormasligi.

RTRni ishlab chiqish oldindan aniq tuzilgan reja asosida olib borilishi kerak. RTRni yaratishning unifitsirlangan texnologiyasi mavjud emas. Har bir fan o'qituvchisi dasturni xususiy texnologiya asosida ishlab chiqadi. Shu bilan birga har qanday RTRni ishlab chiqish ba'zi umumiy prinsiplar holatlarga mos ravishda amalga oshiriladi. RTRni ishlab chiqish jarayonida an'anaviy va adaptiv metodikalar qo'llaniladi.

RTRni yaratishning an'anaviy metodikasi materialni kichik quyi mavzularga bo'lishni nazarda tutadi va o'quvchilarga axborot kichik elektron modullar ko'rinishida ixcham shaklda taqdim etiladi.

RTRni yaratishning adaptiv metodikasi o'quvchilarning bilim darajasini hisobga oladi. Birinchi navbatda o'quvchilarga ma'lumotlar qisqa ixcham shaklda taqdim etiladi. Undan keyin ko'rilayotgan masala bo'yicha o'quvchilarning bilim darajasi aniqlanib, ularga keyingi materialni o'zlashtirish formalari hamda o'zlashtiriladigan materialning hajmi bo'yicha tavsiyalar beriladi [11, 9].

RTRni ishlab chiqish ikki yo'nalish bo'yicha olib borilishi mumkin:

1. Birinchi yo'nalish oldindan tayyorlab qo'yilgan matnli, grafik, video-audiomateriallarni yig'ib, ular asosida RTRni yaratishga mo'ljallangan tayyor dasturlardan foydalanishga asoslanadi.

2. Ikkinchi yo'nalish RTRni maxsus dasturiy vositalar yordamida ishlab chiqishni nazarda tutadi.

RTRni ishlab chiqishning quyidagi metodik bosqichlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1-bosqich. Dastlabki tayyorgarlik ishlari.

Ushbu bosqich hujjatlarni ishlab chiqish zaruriyati bilan xarakterlanadi. Hujjatlar RTRni yaratish jarayoni va o'quv materiallarni yaratish uchun zaruriy instrumental vositalarni belgilab beradi.

Dastlabki tayyorgarlik bosqichi quyidagi amaliy ishlarni bajarishni nazarda tutadi:

- potensial foydalanuvchilarning ehtiyojlarini tahlil etgan holda RTRga qo'yilgan didaktik talablarni shakllantirish;

- RTRga qo'yilgan texnik talablarni tahlil etish – mazkur texnologiyani amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash. Agar texnik murakkabliklar yuzaga kelgan taqdirda texnik topshiriqni qayta ko'rib chiqish;

-RTRning strukturasi tuzish;

-RTRdan foydalanish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish (o'qituvchilar uchun);

- RTR bilan ishlash bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqish (o'quvchilar uchun);

- 2-bosqich. Resurs mazmunini tayyorlash.

Dasturiy jihatdan RTR ikkita quyi tizimdan iborat:

- axborotli (mazmunli qism);

- dasturiy (dasturiy qism).

Tayyorlov bosqichi resursning ssenariysini yozish bilan kuzatib boriladi va unda subyektlar orasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari belgilab beriladi.

Funksional jihatdan RTR tarkibiga quyidagilarni qo'shish tavsiya etiladi:

- o'quvchilarni avtorizatsiyalash;

- mustaqil ish ko'rinishidagi o'quv materiallar va yakuniy nazorat topshiriqlari;

- qo'shimcha materiallar (tarjimonlar, ma'lumotnomalar);

- o'quv servislari (darslik bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar, asosiy terminlar tarjimoni va h.k.);

- o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi muloqot interfeysi;

- himoya tizimi.

Tayyorlov bosqichi RTRni ishlab chiquvchilardan bunday resurslarni yaratish texnologiyasi bo'yicha bilim va tajribaga ega bo'lishni talab etadi [12, 550].

3-bosqich. Dizayn.

Ushbu bosqichning asosiy ishini dizaynerlar bajaradi. Dizaynerlar RTRning strukturasi belgilaydi va quyidagi ikki bosqichdan iborat bo'lgan aniq ssenariyni ishlab chiqadi:

1. Elektron kursning umumiy ko'rinishini rasmiylashtirish, navigatsiyaning tamoyilli yechimi, o'quvchilar bilan teskari aloqani tashkil qilish;

2. Dizaynni ishlab chiqishda har bir oynalarning tashqi ko'rinishi va kontekst menyuni aniqlashni nazarda tutadi.

4-bosqich. Ishlab chiqish.

Ushbu bosqich RTRni bevosita ishlab chiqish bilan xarakterlanadi va havolalarni, bo'limlar bo'yicha materiallarni komponovkalashni, grafik, matnli, video va audiomateriallarni yaratishni hamda rasmiylashtirishni nazarda tutadi.

5-bosqich. Testlash.

Testlash jarayoni RTRni yaratishning har bir bosqichida amalga oshiriladi va dasturiy xatoliklarni aniqlab boradi.

Testlash maqsadi — ishlab chiqilgan yakuniy dasturning buyurtmachining talablariga javob berishini aniqlashdir. Ushbu jarayonda yakuniy testlashning muhimligi shundaki, unda RTRning kamchiliklarini uni ishlab chiquvchi uslubchilar, dasturchilar va dizaynerlar kuzatuvida eksperimental tarzda aniqlash imkonini beradi.

Yakuniy testlashning maqsadi;

- taqdim etilgan materiallarda inobatga olinmagan noaniqliklarni aniqlash;
- onlayn rejimida dasturning barcha komponentalarining ishlashini tekshirish;
- 6-bosqich. RTRni registratsiyalar va sertifikatlash.

RTR O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq elektron hisoblash mashinalari va ma'lumotlar bazasini ruxsatsiz tarqatish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi huquqiy va patent himoyasi mavjud.

RTRni yaratishning yana bir muhim bosqichlaridan biri, uni ekspertizadan o'tkazishdir. Ta'lim muassasalari amaliyotida RTRni ichki va tashqi formada ekspertizadan o'tkazish mumkin. Masalan, RTRni muhokamasini kafedra yig'ilishida o'tkazish ichki ekspertiza formasi bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy yoki metodik muassasalar, mazkur soha mutaxassislari tomonidan yozilgan taqriz tashqi ekspertiza formasi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Ishlab chiqiladigan RTRga qo'yiladigan zamonaviy talablarni mavjud yondashuvlar asosida tizimlashtirish mumkin. Quyida bunday talablarning ayrimlarini keltiramiz [3]:

- RTRning mazmuni o'quv qo'llanmalardan, ta'lim muassasasining o'quv-uslubiy ma'lumotlaridan va Internetning ta'lim resurslaridan iborat bo'lishi;
- o'qitishning zamonaviy formalari, multimedia texnologiyalariga ega bo'lishi va yuqori interfaollikni ta'minlashi;
- ta'lim oluvchilarni individual tayyorlashni ta'minlashi;
- ta'lim oluvchilar tomonidan olingan nazariy bilimlar asosida amaliy tajribaga ega bo'lishlari uchun maxsus topshiriqlarni ishlab chiqilganligi;
- individual va guruhli topshiriqlarga ega bo'lishi;
- belgilangan texnik platformada axborotlarni akslantirishi;
- bir vaqtning o'zida RTRdan va boshqa dasturlardan foydalanish imkoniyatini yaratilishi;
- qulay interfeysga va kontekstli yordamga ega bo'lishi.

Shu bilan birga, RTR mavjud o'quv komplekslariga qo'shimcha bo'lmasligi, mavjud axborotlar takrorlanmasligi va tez eskiradigan materiallarni o'zida mujassamlashtirmasligi kerak [11, 12].

Ta'lim oluvchilarning shaxsiy rivojlanishiga yo'naltirilgan RTRga qo'yiladigan asosiy talablarga quyidagilar kiradi:

- o'quv jarayoniga RTRdan foydalanishning pedagogik zaruriyati;
- RTR mazmuni ilmiy asoslanganligi, ishonchli ma'lumotlar taqdim etilganligi;
- istalgan vaqtda ta'lim oluvchi kontent RTRga ega bo'lishi;
- muqobil manbalarni qo'llash orqali axborot hajmini oshirib borilishi;
- guruhli mashg'ulot sharoitida o'qitishga individual yondashuv;
- guruhli va individual mashg'ulot formalarini uyg'unlashtirish;
- hamkorlikda o'qishda va ishlashda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish.

RTRni ishlab chiqishning tashkiliy talablariga quyidagilar tegishli [13, 16]:

- RTRning mazmuni tasdiqlangan ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va rejalarga mosligi;
- o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishda kompleksli va ko'p funktsionali yondashuv;
- RTR mazmunini tahrirlash va to'ldirish imkoniyatlari;

- axborotni vizual taqdim etishda dizayn va ergonomik talablar;
- resursni o'quv-tarbiyaviy jarayonda foydalanish bo'yicha tavsiyalarining mavjudligi; RTRni ishlab chiqishning asosiy texnik talablariga quyidagilar kiradi [9]:
- resursning barqaror va uzluksiz ishlashi;
- foydalanuvchining axborot xavfsizligini va tarmoqni tashqi ta'sirdan himoyalash;
- axborotlarni tezkor qayta ishlash jarayonini va foydalanuvchini resurs bilan qulay ishlashini ta'minlash;
- foydalanuvchini resurs bilan lokal va global tarmoqda ishlashini ta'minlash.

RTRni kompleks baholash muammosi — o'quvchining kompyuter bilan ishlashida uning sog'lig'ini asrash, muloqot vositalarining ergonomik va dizayn talablarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan kompleks masalalar yechimini topishni taqozo etadi.

RTRni ishlab chiqish va o'quv jarayonida joriy etish o'quv-tarbiyaviy jarayonlarda yangi usullarni joriy etishga, o'qituvchining pedagogik kompetentligini oshirishga imkon beradi. Shuningdek, RTR didaktik masalalarni muvaffaqiyatli yechishda katta potensial imkoniyatlar yaratadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida"gi PF-5812-sonli Farmoni. www.lex.uz
2. Петрова Н.П. Цифровизация и цифровые технологии в образовании /Н.П. Петрова, Г.А. Бондарева // Мир науки, культуры, образования. — 2019. — № 5 (78). — С. 353–355.
3. Бабина Н.Ф. Технология: методика обучения и воспитания. Учебное пособие. / Н.Ф. Бабина. – Изд.: Директ-Медиа, 2015. Ч.1, 178 с.
4. Определение ЦОР. URL: anton-frolow2010.narod.ru/word/3.doc (дата обращения: 15.11.2024)
5. Бедный Б.И., Кузенков О.А. Интегрированные программы подготовки научно-педагогических кадров высшей квалификации // Интеграция образования. 2017. Т. 21, №4. С. 637-650.
6. Методическое объединение учителей биологии Ленинского района города Челябинска: Цифровые образовательные ресурсы. URL: <http://mmc74212.narod.ru/Biology/p11aa1.html> (дата обращения: 15.11.2024).
7. Ваграменко Я.А. Информатика: образовательный аспект. М., 2011. 120 с.
8. Осин А.В. Электронные образовательные ресурсы нового поколения: открытые образовательные модульные мультимедиа системы. URL: <https://docplayer.ru/44978090-A-v-osin-eor-novogo-pokoleniya-otkrytye-obrazovatelnye-modulnye-multimedia-sistemy-vvedenie.html> (дата обращения: 16.11.2024).
9. Белозёрова С.И., Белозеров О.И. Организация контроля знаний студентов в LMS MOODLE // Современные проблемы науки и образования. 2018. №6. URL: <http://www.science-education.ru/ru/article/view?id=28270> (дата обращения: 17.11.2024).
10. Dawley L. Social networking knowledge construction: Emerging virtual world pedagogy // On the Horizon. 2009. Vol. 17(2). Pp. 109-121.
11. Saavedra A., Opfer V. Learning 21st-century skills requires 21st-century teaching // Phi Delta Kappan. 2012. Vol. 94(2). Pp. 8-13.
12. Osman G., Duffy T., Chang J., Lee J. Learning through collaboration: student perspectives // Asia Pacific Education Review. 2016. Vol. 12(4). Pp. 547-558.

13. Ваграменко Я.А. Методологические предпосылки формирования информационной образовательной среды // Информационные ресурсы в образовании: Всероссийская научно-практическая конференция. 2011. С. 15-16.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).